

“ГРАФИК ORGANAYZER” TA’LIMIY VOSITALARI YORDAMIDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY KO‘RINISHLARI

Yusufjon Nabijanov Inomiddin o‘g‘li
University of Business and Science universiteti
“Til va adabiyot ta’limi” kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD
+99895 852-53-01
yusufxonnabijanov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada grafik organayzerlarning tadqiqiga oid bo‘lgan fikrlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, infografikalar: “Piramida”, “Pitsa diagrammasi”, “Ustunli diagramma”, “Voqealar zanjiri” kabilardan berilgan matnni tezda idrok etishda, maktab o‘quvchilarining lingvistik bilimlarini rivojlantirishda foydalanish natijasida yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: grafik organayzer, “Eng ommaviy texnologiyalar”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Piramida”, “Baliq skeleti” grafik organayzerlari, “interfaol usul”, infografikalar, uzedu.uz veb sahifasi, “obrazli tafakkur”, fanlararo integratsiya, “Pitsa diagrammasi”, “Ustunli diagramma”, “Voqealar zanjiri” grafik organayzerlari, lingvistik bilim, Wondershare EdrawMax dasturiy ta’minoti.

СОВРЕМЕННЫЕ ВИДЫ ОБУЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ "ГРАФИЧЕСКИЙ ОРГАНАЙЗЕР"

Юсуфжон Набижанов Иномиддин угли
Университет бизнеса и науки
Старший преподаватель кафедры "Преподавание языка и литературы", PhD
+99895 852-53-01
yusufxonnabijanov@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются идеи, связанные с исследованием графических органайзеров. Также описывается, что использование инфографики, такой как "Пирамида," "Диаграмма-пицца," "Столбчатая диаграмма," "Цепочка событий," может привести к высокой эффективности в быстром восприятии заданного текста и развитии лингвистических знаний школьников.

Ключевые слова: графический органайзер, "Самые популярные технологии," "Кластер," "Диаграмма Венна," "Пирамида," графические органайзеры "Рыбий скелет," "интерактивный метод," инфографика, веб-страница uzedu.uz, "образное мышление," междисциплинарная интеграция, графические органайзеры "Диаграмма-пицца," "Столбчатая диаграмма," "Цепочка событий," лингвистические знания, программное обеспечение Wondershare EdrawMax.

MODERN FORMS OF EDUCATION THROUGH EDUCATIONAL TOOLS: GRAPHIC ORGANIZERS

Yusufjon Nabijanov Inomiddin ogli

PhD, Senior Lecturer, Department of Language and Literature Teaching

University of Business and Science

Email: yusufxonabijanov@gmail.com Phone: +998 95 852-53-01

Abstract:

This article examines the pedagogical potential of graphic organizers as modern educational tools. It explores how various types of infographics—such as the *Pyramid*, *Pie Chart*, *Bar Graph*, and *Sequence Chain* – can significantly enhance students' ability to quickly comprehend written texts and develop their linguistic competence. The study also highlights the integration of visual thinking strategies and interactive methods in language instruction. Furthermore, the use of digital tools like **Wondershare EdrawMax** and the application of materials from platforms such as **uzedu.uz** are discussed as part of an interdisciplinary approach to language education.

Keywords: graphic organizers, infographics, Pyramid, Pie Chart, Bar Graph, Sequence Chain, Venn Diagram, Cluster, Fishbone Diagram, interactive methods, visual thinking, interdisciplinary integration, linguistic competence, educational technology, Wondershare EdrawMax, uzedu.uz.

KIRISH.

Hozirgi kunda O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangicha innovatsion texnologiyalar kirib kelmoqda. Yangi avlod

darsliklari, metodik qo'llanmalar yangicha ko'rinishga va dizaynga ega bo'lmoqda. Ushbu jarayonlar davomida "fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etuvchi vosita" sifatida e'tirof etiluvchi grafik organayzerlar va ularning tadqiqiga oid tadqiqot ishlari dolzarblik kasb etmoqda. Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan yangi 5-6-sinf ona tili darsliklarida ham grafik organayzerlarning ayrim namunalarini uchratayotganligimiz sir emas [2,3]. Bu esa o'qitish tizimidagi yangicha pedagogik texnologiyalarning kirib kelayotganligini ifodalaydi. Grafik organayzerlarni hosil qiluvchi maxsus dasturiy ta'minotlar yordamida esa tayyor mavzuga mos holatda didaktik materiallarni hosil qilib olish imkoniyatiga egamiz. Buning uchun o'qituvchi-pedagog kompyuter va dasturiy ta'minotlardan foydalana olish ko'nikma hamda malakasiga ega bo'lishi kerak. Bu esa avvalgi ibtidoiy ravishda yaratib olingan va yillar o'tsa hamki, o'zgarmagan ko'rgazmali vositalardan ancha farq qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Namangan davlat universiteti pedagogika va psixologiya yo'nalishi tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan darslikda grafik organayzerlar hozirgi kundagi "eng ommaviy texnologiyalar" sifatida izoh berib o'tilgan [1: 272]. Haqiqatan ham, vizual ta'lim texnologiyasida eng ko'p murojaat qilinishi mumkin bo'lgan ta'limiy vosita sifatida grafik organayzerlar namoyon bo'ladi. Grafik organayzerlarni yaratish davomida o'quvchidan ijodiy yondashuv, kreativ fikrlash talab qilinadi.

"Ta'lim, fan va innovatsiya" ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnalida ham grafik organayzerlar borasida bir qancha kerakli maqolalarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, ushbu jurnalning 2015-yil 3-sonining 71-sahifasida F.Karimov tomonidan yozilgan "Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida interfaol usullardan foydalanish" deb nomlangan maqolasi [5: 71-74] da oliy ta'limda ma'ruza, seminar hamda amaliy mashg'ulotlarni olib borish jarayonida muammoni u yoki bu darajada hal etish maqsadida "Klaster", "Venn diagrammasi", "Piramida", "Baliq skeleti" dan foydalanish [5: 71] lozimligi aytib o'tilgan, ammo ular grafik organayzer deya nomlanmagan. Muallif asosiy e'tiborini ularning "interfaol usul"

ekanligiga qaratgan. Grafik organayzerlarni qo'llashda jarayon sifatida "interfaol usul" degan birikmadan foydalanish o'rinli. Ammo "grafik organayzer" tushunchasi o'quv faoliyatiga emas, aynan bir shakl yoki chizmaga nisbatan ishlatilishi inobatga olinsa, uni uni "ta'limiy vosita" sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Andijon davlat universiteti huzuridagi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi "Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrası" katta o'qituvchisi Abdullayev Muhammadiminning "Zamonaviy ta'lim" ilmiy-amaliy ommabop jurnali 2019/5-sonida [4: 23-27] chop etilgan maqolasida innovatsion g'oyalar hamda innovatsion jarayonlar tushunchasi, kelib chiqishi, tarixi, o'rganilganligi hamda ta'lim tizimida tutgan o'rni atroflicha yoritishga harakat qilingan. Maqola muallifi olingan natijalar sifatida pedagog xodimlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajalari haqida so'z boradi [4: 24]. Demak, innovatsion ta'lim texnologiyalarining boshqa turlaridan ustunlik darajasi katta ekanligini ko'rsatadi. Darsni yana ham samarali tashkil qilishda, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga hamda an'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda har bir o'quvchining o'ziga xos bilim darajasi, psixologik holatini hisobga olgan holda individual yondashuv jarayonlarida bevosita foydalanish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ta'limda keng qo'llanilishiga urg'u qaratilayotgan grafik organayzerlarning "interfaol vosita" ekanligi, o'quvchilarning tasavvur olamlarini yana ham boyitishda "infografika"larni qo'llash, ayniqsa, "Piramida", "Pitsa diagrammasi", "Ustunli diagramma", "Voqealar zanjiri" kabi infografik organayzerlarni qo'llashning metodik usullari ko'rib chiqiladi, didaktik jihatdan aniqlashtiriladi.

Tahlillar va natijalar:

Ta'limda "infografika"lardan foydalanish keng tus oldi. "Infografika"lar hozirgi kunda deyarli barcha sohalarda qo'llanib kelinmoqda.

Dastlab infografikadan statistik ma'lumotlarni o'zaro tahlil qilish maqsadida foydalanilgan. Masalan, Xalq ta'limi vazirligining uzedu.uz veb sahifasidagi "statistika" bo'limiga kirsangiz, O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining sonini ustunli diagrammalar bilan ifodalanganini ko'rishingiz mumkin bo'ladi.

Ushbu grafik organayzer turi o'quvchilardagi "obrazli tafakkur"ni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi, ularda kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, fanlararo integratsiya (fanlararo bog'lanish)ni ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'limda integratsiyani amalga oshirish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda o'ziga xos rol o'ynaydi [6].

7-sinf ona tili darsligining ayrim mashq hamda topshiriqlarini aynan infografikalar yordamida quyidagicha bajarish holatini ishlab chiqdik.

O'quvchilarning "C vitamini" bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishganlik darajasini aniqlash maqsadida bir nechta savollar berilgan bo'lib [3: 46], savollarga o'quvchilar infografikadan foydalangan holda javob beradilar. Ushbu vaziyatda ularning matnni qay darajada o'qib tushunishlari hamda og'zaki nutqni rivojlantirishga yordam berishi mumkinligi ko'rinadi.

Ushbu topshiriqni bajarishda ham biz grafik organayzerlardan foydalanishga harakat qildik.

1-savol: C vitaminiga boyligi bo'yicha qaysi mahsulotlar 1-, 2-, 3-o'rinni egallaydi?


"Piramida" grafik organayzeridan foydalangan holatda o'quvchilar quyidagi grafik organayzerni hosil qilib olishganini sizlarga havola qilamiz (1-rasmga qarang).



1-rasm. “Piramida” grafik organayzeri


Yuqorida berilgan savolga o‘quvchilar ko‘rgazmali holatda javob qaytardi.

Ushbu “Pitsa diagrammasi”da aynan 100 gramm mahsulotlar tarkibida qancha miqdorda C vitaminining mavjudligini ko‘rish mumkin bo‘ladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. “Pitsa diagrammasi”

Nafaqat pitsa bo‘laklari yordamida, balki “Ustunli diagramma”lar yordamida ham ifodalash mumkin (3-rasmga qarang).



3-rasm. “Ustunli diagramma”

“C vitamini” mavzusidagi mavzuning keyingi – 46-sahifasida infografika asosida 5 ta xulosa yozish topshirig‘i berilgan [3: 46] va shu orqali o‘quvchilarning yozma nutqi sinovdan o‘tkaziladi. Tajribalarimiz davomida o‘quvchilarning infografika orqali yozgan xulosaviy fikrlarini quyidagi jadvalda havola qildik.

1	Na‘matak boshqa mahsulotlar ichida C vitaminiga eng boy bo‘lgan mahsulot hisoblanadi, chunki 100 gramm na‘matakda 470 mg miqdorida C vitamini mavjud.
2	C vitaminiga boy mahsulotlar jigar faoliyatini yaxshilash uchun yordam beradi.
3	O‘n uch (13) yoshgacha bo‘lgan bolalarning C vitaminiga bo‘lgan bir kunlik ehtiyoji 40-50 mg ni tashkil etadi.
4	100 gramm petrushka tarkibidagi C vitamini 19 yoshdan yuqori bo‘lgan ayollarning C vitaminiga bo‘lgan 2 kunlik ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladi.
5	C vitaminiga boy bo‘lgan mahsulotlarni B2, B12, B5, B vitaminiga boy bo‘lgan mahsulotlar bilan me‘yordan ortiq qo‘shib iste‘mol qilinishi natijasida uyqusizlik, charchoq, milklar qonashi kabi salbiy holatlar kuzatilishi mumkin.

6-sinf o‘quvchilarining “C vitamini” bo‘yicha infografika asosida yozgan xulosaviy fikrlari

Ushbu xulosaviy fikrlarni yozish davomida o‘quvchilardagi imloviy, uslubiy hamda punktuatsion xatolari tuzatib boriladi. Natijada, infografika orqali nafaqat o‘quvchining matnni tezda tushunib olganligi, shuningdek, uning savodxonliklariga doir lingvistik bilimlari ham sinovdan o‘tkaziladi.


Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan 7-sinf ona tili darsligining “Ko‘chirmachilik taraqqiyotimiz ildiziga urilgan boltadir” mavzusi ostida berilgan matnning ostida ana shu matn bo‘yicha tuzilgan 10 ta savollar berilgan (4-rasmga qarang).



1. Matn muallifi qayerda o'qigan?
2. U qanday vazifa topshirishi kerak edi?
3. U nima uchun vazifani o'zi bajarmadi?
4. Nemis kursdoshi vazifa ko'chirilganini qanday bilib qoldi?
5. Nemis talaba nima uchun ko'ziga yosh oldi?
6. Matn muallifi muammoni qanday hal qildi?
7. Uning qisqa muddatda qiyin vazifani uddalashiga nima turtki berdi?
8. Matn muallifining fikri nima uchun o'zgardi?
9. Ko'chirmachilik nima uchun taraqqiyotga to'siq bo'ladi?
10. Ko'chirmachilik qilgan odamning o'zi bundan qanday zarar ko'radi?

4-rasm. 7-sinf ona tili darsligi. “Ko‘chirmachilik taraqqiyotimiz ildiziga urilgan boltadir” mavzusi ostida berilgan matn bo‘yicha savollar. Darslikning 197-sahifasi

Bu yerda berilgan savollarga o‘quvchilar “Voqealar zanjiri” grafik organayzeridan foydalangan holda javob berishga harakat qilishdi. Ushbu grafik organayzerning o‘quvchilar tomonidan Wondershare EdrawMax dasturi vositasida yaratib olingan shaklini sizlarga havola qildik (5-rasmga qarang).



5-rasm. “Voqealar zanjiri” grafik organayzeri

O‘qituvchi topshiriq sifatida sodir bo‘layotgan voqealar ketma-ketligini matndan kelib chiqqan holda shakllantirib olish vazifasini qo‘yadi. Natijada, gaplarni o‘quvchilar to‘rtburchak shaklidagi qutilar ichiga joylashlari lozim bo‘ladi. Har bir qutining ichiga matn bo‘yicha berilgan savollarga javob sifatida olingan matn bo‘laklaridan foydalanishadi. Buning natijasida o‘quvchilarda matn

bilan ishlash texnologiyasi shakllanib boradi. Ya'ni matnni o'qib, tahlil qilish orqali (grafik organayzer orqali bajarilganida bu yana ham yaqqol namoyon bo'ladi) uning asosiy g'oyasini aniqlash, matnni tayyorlagan muallifning maqsadini tushunish, matnning tarkibiy tuzilmasini anglay olishda yordam beradi.

Berilgan matnlar orqali umumiy fikrni anglab yetish barcha uchun ham birdek anglashilmasligi tabiiy hol. Ana shular grafik organayzerlar orqali ifodalansa, katta samara berishi shubhasiz. Berilgan matnlarni o'zaro bog'liqlikda grafik organayzerlar orqali ko'rsatib berishda o'ziga xos sxematik joylashuv aynan o'qilishi yoki tushunilishi rejalashtirilayotgan matnlarni o'zaro idrok etishga, ular orqali matndan anglashiladigan asosiy mazmun-mohiyatni anglashga yordam beradi. Natijada, matnlarni grafik organayzerlar yordamida tasvirlash orqali asosiy g'oya, yordamchi tafsilotlar, fikrlar hamda ma'lumotlar yuzaga kela boshlaydi. O'quvchi aynan grafik organayzerlar orqali matnni tushunishda ***mantiqiy bosqich***ga ko'tariladilar.

Xulosa.

Bizningcha, matnlardan kerakli va asosiy bo'lgan ma'lumotlarni grafik organayzerlar orqali ko'rsatishda matndan olinishi kerak bo'lgan umumiy mazmun anglashiladi. Fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, chunki matndan olingan ayrim fikrlar, jumlar aynan grafik organayzerlar orqali ifodalanadi. Natijada, o'quvchilar sxema bo'yicha tasniflashni o'rganib borishadi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari davomida o'quvchilarning grafik organayzerlar orqali lingvistik hamda tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish, matnlarni tez va oson o'qilishi hamda tushunilishini ta'minlash, grafik organayzerlarni hosil qiluvchi maxsus pedagogik dasturiy ta'minotlar yordamida kerakli "model"larni hosil qilish jarayonida zaruriy mezon va darajalar belgilab olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqarova O'., Nishonov M., Kurbanova Z., Muminova D. Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi: darslik. – Toshkent, 2019. – 365 b.

2. Azimova I., Mavlonova K. va boshq. Ona tili: 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
3. Azimova I., Mavlonova K. va boshq. Ona tili: 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
4. Абдуллаев М.Э. Таълимда инновацион жараёнларнинг шаклланиши ва ривожланиши // Замонавий таълим. 2019-йил, № 5. – 96 б.
5. Каримов Ф.Х. Жисмоний тарбия машғулотларида интерфаол усуллардан фойдаланиш // Та’лим, fan va innovatsiya. 2015/3-son. – 100 б.
6. <https://interonconf.net/index.php/iat/article/download/211/171>